# "Qizlarjon" klubida

"Yer resurslarini boshqarish" fakultetida TIQXMMI XQK raisi yordamchisi Z.Xafizova va fakultet XQK a’zosi O.Roʻziqulovalar tomonidan “Qizlarjon” klubi ishini davom ettirish, qizlarni kasbga va hunarga oʻrgatish maqsadida navbatdagi yigʻilish tadbiri oʻtkazildi. Qizlar davra suhbati davomida institutda ta’lim va tarbiya olish bilan bir qatorda darsdan boʻsh vaqtlarini samarali tashkil etish maqsadida tikish-bichish ishlariga ham jalb etilgan. Buning uchun 3-TTJda tashkil etilgan “Tikuvchilik” toʻgaragi boʻyicha ham ma’lumotlar berildi. Qizlarimiz-kelajak onalari. Onalar esa xonadonlarining koʻrki va obodligi uchun tikish va bichishni ham oʻrganishlari zarur. Bu harakatni “Milliy liboslar” tanloviga tayyorgarlik deb hisoblash mumkin.

TIQXMMI matbuot xizmati